

UDK: 37.02.026**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA REFLEKSIV KO'NIKMALARNI
RIVOJLANTIRISH ASOSIDA ULARDA MADANIY DUNYOQARASHNI
SHAKLLANTIRISH*****Yuldasheva Gavxaroy O'rinoqizi****Urganch innovation university o'qituvchisi**phone: +998(94)237-66-11**E.mail: gavharov5@gmail.com****ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-1448-8479>***

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni rivojlanirish asosida ularda madaniy dunyoqarashni rivojlanirish jarayonining o'ziga xos pedagogik va psixologik xususiyatlari, refleksiyalash qobiliyati yordamida bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishi va o'z-o'zini madaniy jihatdan namoyon qilishi, bolajak o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni rivojlanirish usullari, shuningdek, pedagogik refleksiyaning dolzarbli muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchilar, refleksiv ko'nikma, madaniy dunyoqarash, pedagogik mahorat, pedagogik ko'nikma, psixologik xususiyat, kasbiy bilim, ta'lim jarayoni, refleksiv yondashuv, kasbiy rivojlanish, ta'lim sifatini oshirish, o'z-o'zini jarayon.

**ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ НА ОСНОВЕ
РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКСИВНЫХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

Аннотация: В данной статье на основе развития рефлексивных умений у будущих учителей рассматриваются специфические педагогические и психологические особенности процесса развития их культурного мировоззрения, профессионального становления и культурного самовыражения будущего учителя с помощью рефлексивных умений, методы развития рефлексивных умений у молодых учителей, а также актуальность педагогической рефлексии.

Ключевые слова: будущие учителя, рефлексивные умения, культурное мировоззрение, педагогическое мастерство, педагогическое мастерство, психологическая характеристика, профессиональные знания, учебный процесс, рефлексивный подход, профессиональное развитие, повышение качества образования, самосознание, аналитическое мышление, педагогическая деятельность, профессиональная квалификация учителя, педагогический процесс.

**FORMING THEIR CULTURAL WORLDWIDE VIEW ON THE BASIS OF
DEVELOPING REFLECTIVE SKILLS IN FUTURE TEACHERS**

Annotation: In this article, based on the development of reflexive skills in future teachers, the specific pedagogical and psychological features of the process of developing their cultural outlook, professional development and cultural self-expression of the future teacher with the help of reflective skills, methods of developing reflexive skills in young teachers, as well as the relevance of pedagogical reflection are discussed.

Key words: future teachers, reflexive skills, cultural outlook, pedagogical skill, pedagogical skills, psychological characteristics, professional knowledge, educational process, reflexive approach, professional development, improving the quality of education, self-awareness, analytical thinking, pedagogical activity, teacher's professional qualification, pedagogical process.

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi kunda pedagogik refleksiyaga oid izlanishlar pedagogning o‘z o‘zini anglashi bilan bog‘liq muammolar doirasida tadqiq etilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarini innovatsion xarakterdagi pedagogik faoliyatga tayyorlashga oid izlanishlar doirasida mutaxassisning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu masala V.L. Matrosov, O.V. Moskalenko, L.M. Mitinalar tomonidan tadqiq etilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarini tayyorlash muammosini tadqiq etayotgan mutaxassislarning aksariyati pedagogik refleksiyaga alohida o‘rin ajratgan. Chunki refleksiyalash bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlarida shakllantirilgan kasbiy kompetensiyadagi bo‘shliqlar va muvaffaqiyatli jihatlarni aniqlash maqsadida pedagogik refleksiyadan foydalanishlari nazarda tutilgan. Shu bilan bir qatorda refleksiya o‘qituvchining reguliyativ kompetensiyasi tarkibiga kiradi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchiga o‘zining shaxsiy xulqatvorini boshqarish imkonini beradi. O‘z xulq-atvorini boshqarish kompetensiyasi tarkibiga o‘z oldiga maqsadlar qo‘ya olish, rejalashtirish, safarbarlik ko‘rsatish, qat’iy faollik, faoliyatining natijalarini baholash ko‘nikmalari kiradi.

Aksariyat mutaxassislar pedagogning refleksiyalash layoqati tushunchasi doirasida o‘qituvchining o‘z o‘zini anglash faoliyatini nazarda tutadilar. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘z faoliyatiga nisbatan tahliliy nuqtai nazardan yondashadi. Shunga ko‘ra A.A.Bizayeva tomonidan pedagogik refleksianing ikki darajasi ajratib ko‘rsatilgan[1].

1. Tezkor - o‘z tarkibiga refleksiv ongning tezkor, konstuktiv ijrochilikka asoslangan, motivatsion, prognozlash yo‘nalishlarini mujassamlashtiradi.

2. Pedagogik refleksining shaxsiy darajasi bo‘lajak o‘qituvchining kasbiyshaxsiy, subyektiv yo‘nalishlari hamda refleksiv vaziyatlarga shaxsiy subyektiv jihatdan kirishishini anglatadi. Ko‘rinib turibdiki pedagogik refleksiya bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini jadallashtiruvchi hodisa bo‘lib, mazkur layoqatni shakllantirish natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘zining kasbiy yetukligi va kamchiliklarni aniq tasavvur qilish, kasbiy-madaniy dunyoqarashini rivojlantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METOD (MATERIALS AND METHODS)

Tadqiqot muammosining nazariy tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, refleksiyalash

qobiliyatini rivojlantirish doirasida amalga oshirilgan taddiqotlarning aksariyati o‘quvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirilishiga bag‘ishlangan. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirishni takomillashtirish masalasiga juda kam murojaat etilgan.

Ushbu muammoga ayrim tadqiqotlar doirasida murojaat qilingan. Masalan R.G.Safarova[2] va B.B.Ma’murov[3] kabilarning ishlari bunga misol bo‘la oladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish asosida ularda madaniy dunyoqarashni rivojlantirish jarayoni o‘ziga xos pedagogik va psixologik xususiyatlarga ega. Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv ko‘nikmalari yordamida ajdodlarimiz merosi, global madaniy xodisalarni tahlil qilishlari uchun sharoit yaratiladi.

V.V.Davidovning ta’biricha – “refleksiv ko‘nikmalar o‘quv harakatlarining ichki tayanch asosi hisoblanadi. Mazkur ko‘nimalar shaxsning ehtiyojlarini, mayllarini o‘zaro muvofiqlashtiradi. Refleksiv ko‘nikmalar o‘quv-biluv harakatlari mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Refleksiv faoliyat bo‘lajak o‘qituvchining mustaqil bilim olishi, izlanishi natijasida rivojlanadi va madaniy dunyoqarashning shakllanishiga asos bo‘ladi”[4]. Madaniyatshunoslik, pedagogika, psixologiya, falsafa fanlarida refleksiya tushunchasinining talqini ushbu sohalar nuqtai nazaridan yondashilgan holda bayon qilingan.

Refleksiya o‘quv jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini madaniy jihatdan anglashiga ko‘maklashadi. Bunday madaniy jihatdan o‘z-o‘zini anglash aniq pedagogik vaziyatlarda vujudga keladi. Refleksiv yondashuv asosida maxsus tashkil etilgan pedagogik vaziyatlar bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy rivojlanish imkoniyatlari, shart-sharoitlari, buning uchun zarur bo‘lgan madaniy muhitni mujassamlashtiradi.

Refleksiyalash qobiliyati bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi va o‘z-o‘zini madaniy jihatdan namoyon qilishiga optimal muhit yaratadi. Pedagogik refleksiya yordamida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilar va hamkasblari ularni madaniy jihatdan qay darajada anglashini his qilishlariga sharoit va imkoniyat yaratadi. Refleksiyalash qobiliyati madaniy rivojlanish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan tarixiy-madaniy meros bilan munosabatga kirishadilar. Refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirish asosida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilar va ta’lim jarayonining boshqa subektlariga qanday munosabatda bo‘lishlari lozimligini tushunib yetishga muvaffaq bo‘ladilar.

Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatini qaysi madaniy meyorlar asosida amalga oshirishi lozimligini tasavvur qiladi. Buning uchun zarur bo‘lgan bilimlar va madaniy meyorlarni o‘zlashtiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv layoqatlarini rivojlantirish asosida ularni kasbiy, madaniy munosabatga tayyorlash uchun dastlab talabalarning madaniy dunyoqarashini rivojlantirish talab qilinmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga refleksiv yondashuvni tadbiq etish masalasi bilan pedagoglar, psixologlar va madaniyatshunoslar shug‘ullanmoqda.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish usullarini individual va guruhli ko‘rinishga

bo‘lish mumkin.

Refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun individual usullarning afzalliklari: Bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘zini, uning harakatlarining motivlarini yaxshiroq tushunishga, u yoki bu sifatning, shaxsiy xususiyatning namoyon bo‘lishini qayd etishga, kasbiy tajribani tizimlashtirishga va tahlil qilishga, shaxsiy hamda kasbiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi.

Biroq, refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning individual usullari kamchiliklarga ega: Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘qituvchi o‘z qobiliyatlarini, ko‘nikmalarini, bilimlarini mustaqil ravishda tushunadi va tahlil qiladi, uning harakatlari boshqalarning harakatlariga mos kelmaydi; Inson o‘z qiyinchiliklari bilan o‘ziga chekinishi mumkin. Bu kamchilik o‘qituvchi o‘z muammolari noyob emasligini, boshqalar ham shunga o‘xhash qiyinchiliklarni boshdan kechirayotganini aniqlaganida, refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning guruh usullari bilan qoplanadi. Ko‘pgina oliv tarbiya o‘qituvchilari uchun bu kashfiyotning o‘zi rivojlanish uchun kuchli rag‘bat bo‘lib chiqadi.

Guruh usullari quyidagi afzalliklarga ega: Jamoada munozara va o‘zaro ta’sir, tahliliy ma’lumotlar almashinuvi uchun yagona makon yaratilgan. O‘qituvchilar o‘rtasida fikr almashish barcha ishtirokchilarning refleksiyalashfaolligini faollashtiradi, individual tajribani kengaytirishga yordam beradi va mulohaza yuritish qobiliyati muvaffaqiyatl shakllanadi. Guruh ishi o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘zini ochish, o‘z-o‘zini bilish jarayonlarini osonlashtiradi va har bir kishiga boshqa odamlarning ko‘zlarida o‘z aksini ko‘rishga imkon beradi. Guruhda ishslashda muloqot qobiliyatları rivojlanadi: munozaralar, dialoglar o‘tkazish, ishontirish, o‘z pozitsiyasini himoya qilish. Talabaning ichki tajribangizni boshqalar bilan muhokama qilish orqali o‘zingizni va harakatlaringizni tahlil qilish imkoniyati mavjud .

Refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun guruh usullarining kamchiliklari quyidagilardan iborat: Bo‘lajak o‘qituvchilar har doim ham guruhli muxokamalarga yuqori motivatsiya bilan yondashmaydilar. Guruh ishlarida ishtirokchilar uchun boshqalarning orqasida “yashirinish” osonroq bo‘ladi, o‘qituvchi har doim ham har bir ishtirokchi uchun usullarni shaxsiylashtirish imkoniyatiga ega emas.

Yuqoridagi barcha usullar reflektiv ko‘nikmalarni rivojlantiradi va o‘qituvchilarda refleksiyalash ko‘nikmalarini rivojlantirish dasturini tuzishda foydalanish mumkin. Ularning barchasi refleksiyalash qobiliyatini oshiradigan o‘quv vositalariga aylanishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali madaniy dunyoqarashni shakllantirish masalasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, refleksiya ta’lim jarayonida o‘qituvchi shaxsiy va kasbiy rivojlanishining muhim omili bo‘lib, u pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Madaniy dunyoqarashning shakllanishi esa o‘qituvchilarning o‘z ta’limiy faoliyatini chuqur tahlil qilish, didaktik yondashuvlarini takomillashtirish va ijtimoiy-madaniy

muhitga uyg‘unlashish qobiliyatiga bog‘liq. Shu boisdan, refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar ta’lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv tafakkurini rivojlantirishning samarali usullari, jumladan, muammoli ta’lim, aks ettiruvchi kundalik yuritish, o‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish kabi yondashuvlar muhokama qilingan. Tadqiqot yakunida bu usullarning o‘qituvchilarning madaniy va kasbiy shakllanishiga ijobiy ta’siri asoslab berilgan.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish ularning madaniy dunyoqarashini shakllantirishda asosiy omil bo‘lib, bu esa ta’lim jarayonining sifatini oshirish va pedagogik mahoratni yuksaltirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бизяева А.А.ПСИХОЛОГИЯ ДУМАЮЩЕГО УЧИТЕЛЯ: ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ РЕФЛЕКСИЯ - Псков : ПГПИ им.С . М .Кирова, 2004. - 216 стр.
2. Safarova R.G. O‘quvchilarda madaniy dunyoqarashni shakllantirish parametrlari// FarDU. ILMIY XABARLAR. 2021 yil 2-son. B.120-123.
3. Маъмурев Б.Б. Акмеологический подход как фактор повышения качества профессиональной подготовки будущего учителя. Россия - Таджикистан – Узбекистан: Молодежь и развитие духовной культуры общества: актуальные проблемы и перспективы их решения: сб. материалов междунар. науч. конф.. Душанбе, 2022 – 413 с.
4. Давыдов, В.В. Теория развивающего обучения / В.В. Давыдов. — М.: ИНТОР, 1996. — 544 с.
5. Степанов С. Ю. Рефлексивная психология и рефлексивная практика // Рефлексивные процессы и творчество. Новосибирск, 1990.
6. Ziyayev A.N. UMUMIY PEDAGOGIKA (PEDAGOGIK MAHORAT) O‘QUV QO‘LLANMA. QO‘QON - 2020